

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TABIIY
TOLALARNI DASTLABKI ISHLASH FANIDAN MALAKA TEST
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TABIIY TOLALARNI DASTLABKI ISHLASH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim yo‘nalishidagi tabiiy tolalarni dastlabki ishlash fanidan talabgorlarning bilim darajasini baholash hamda ularga malaka toifalarini berish test tizimi doirasida aniqlash va sertifikatlashdan iborat. Ushbu test varianti orqali fan bo‘yicha nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar darajasi aniqlanadi.

Shuningdek, test varianti formati (topshiriqlar soni, turlari va vaqt me‘yorlari), fan mazmunining asosiy tarkibi (tolalarni tozalash, saralash, dastlabki qayta ishlash texnologiyalari), kognitiv ko‘nikma darajalari (bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish), baholash mezonlari hamda talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar belgilab beriladi.

Mazkur talablar asosida talabgorlarning tabiiy tolalarga dastlabki ishlov berish jarayonlari, uskunalar ishlash prinsiplari va texnologik jarayonlarni boshqarish bo‘yicha bilim va kompetensiyalari kompleks baholanadi.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

TABIIY TOLALARNI DASTLABKI ISHLASH

- 1. Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va jihozlari**
- 2. Kanopni ivitish, qurritish, tola olish texnologiyasi**

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va jihozlari	Paxta xomashyosining tarkibi va xossalari, paxta tolasi va chigitning fizik-mexanik ko'rsatkichlari, paxtani dastlabki ishlash bosqichlari (tozalash, quritish, saralash), paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash jarayonlari, tozalash uskunalarning ishlash prinsiplari, tozalash samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar, tolaga mexanik ta'sirlarni kamaytirish usullari hamda ishlab chiqarish jarayonida paxta tolasi sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish bo'yicha bilim, tushunish va amaliy qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish.	30
1	Kanopni ivitish, quritish, tola olish texnologiyasi	Kanob o'simligining o'sish sharoiti, kanob ekish muddatlari. Zavodning kanop xomashyosini saqlash bazasi, ivitish quritish va uzun tola olish texnologiyasini tushunish va amaliyotga qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish.	10

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab

		qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash fanidan tavsiya etiladigan adabiyotlar.

1. R.I. Ro'zmetov, T.O. Tuychiyev, E.X. Berdanov, I.R. Shamsiyev.

Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash. O'quv qo'llanma. – T.: «Olmaliq kitob business», 2023.

2. Gapparova M.A., Ochilov M.M., Berdanov E.X. *“Sanoat sohalari texnologiyasi” fanidan o'quv qo'llanma.* T.: TTESI, 2020 y.

3. Parpiyev A., M.T. Tillayev, M.A. Babadjanov. *“Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va jihozlari”.* Darslik, Toshkent, 2020.

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.